

YOSHLAR VA TADBIRKORLAR UCHUN MOLİYAVIY SAVODXONLIKNING AHAMIYATI

Abduxakimova Farangiz

*Farg'ona Politehnika instituti,
Iqtisodiyot yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar va tadbirkorlar uchun moliyaviy savodxonlikning ahamiyati keng yoritilgan. Moliyaviy bilimlarning biznes yuritish, qarzlarni boshqarish, investitsiya madaniyatini shakllantirish va raqamli iqtisodiyotga moslashishda muhim o'rin tutishi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekiston-2030 strategiyasi doirasida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Muallif tomonidan moliyaviy ta'lim dasturlarini kengaytirish, tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar berish, bank xizmatlaridan foydalanishni soddalashtirish hamda investitsiya madaniyatini shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, yoshlar, tadbirkorlik, investitsiya, O'zbekiston-2030 strategiyasi, bank tizimi, moliyaviy ta'lim.

Moliyaviy savodxonlik - bu shaxsning moliyaviy bilimlarni o'zlashtirishi va ularni kundalik hayotda samarali qo'llashi jarayonidir. Bugungi kunda yoshlar va tadbirkorlar uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki moliyaviy bilimlar yetarli bo'lmagan yosh tadbirkorlar biznes yuritishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. O'zbekiston-2030 strategiyasida ham aholining moliyaviy savodxonligini oshirish va tadbirkorlik muhitini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.¹⁸⁶

Moliyaviy savodxonlik insonga shaxsiy mablag'larini to'g'ri boshqarish, daromad va xarajatni rejalashtirish, kredit tizimidan oqilona foydalanish imkonini beradi. Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlar va tadbirkorlar orasida moliyaviy bilimlar yetishmovchiligi quyidagi muammolarga olib kelmoqda: Iste'mol kreditlarining noto'g'ri boshqarilishi; tadbirkorlikda moliyaviy xatarlarni baholay olmaslik; jamg'armalar yo'qligi; investitsiya imkoniyatlaridan foydalanmaslik.

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha mo'ljallangan rivojlanish strategiyasida yoshlar va tadbirkorlar uchun moliyaviy ta'limni rivojlantirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda belgilanib kelmoqda. Ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlik darslarini joriy etish bu borada maktab va oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy ta'lim dasturlari yo'lga qo'yilmoqda. Keyingi o'rinda raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi, tadbirkorlar va aholi uchun mobil to'lov tizimlari, onlayn bank xizmatlari orqali moliyaviy boshqaruvni osonlashtirish. Shuningdek kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash dasturlari buning yuzasidan

¹⁸⁶ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son

tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va ta'lim loyihalari amalga oshirilmoqda.¹⁸⁷

1-jadval. Yoshlar va tadbirkorlar orasida moliyaviy savodxonlik darajasi

Yil	Yoshlar orasida moliyaviy savodxonlik darajasi (%)	Tadbirkorlar orasida moliyaviy savodxonlik darajasi (%)
2019	45%	60%
2021	55%	70%
2023	65%	80%
2025 (prognoz)	75%	85%

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, yoshlar va tadbirkorlar orasida moliyaviy savodxonlik darajasi yildan-yilga oshib bormoqda. Agar 2019-yilda yoshlar orasida moliyaviy savodxonlik 45% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 65% ga yetgan. Bu esa moliyaviy ta'lim va raqamli moliyaviy xizmatlarning rivojlanishi natijasida sodir bo'lgan ijobiy o'zgarishlar hisoblanadi.

Shuningdek, tadbirkorlar orasida moliyaviy savodxonlik darajasi yoshlar bilan solishtirganda yuqoriroq bo'lib 2019-yilda 60% ni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2023-yilga kelib 80% ga yetgan, bu esa tadbirkorlar uchun moliyaviy kurslar, bank xizmatlari va soliq tizimi bo'yicha o'quv dasturlarining samaradorligini ko'rsatadi. 2025-yilga kelib, prognozlarga ko'ra, moliyaviy savodxonlik darajasi yanada oshib, yoshlar orasida 75%, tadbirkorlar orasida esa 85% ga yetishi kutilmoqda. Buning sabablari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida moliyaviy ta'lim tizimining rivojlanishi;

- Bank va moliya tashkilotlarining aholi bilan faol ishlashi;
- Raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi va ommalashuvi;
- Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarining kuchaytirilishi.

Moliyaviy savodxonlik yoshlar va tadbirkorlar uchun uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik va muvaffaqiyatga erishishda muhim omil hisoblanadi. "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning moliyaviy bilimlarini oshirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Kelgusida maktab va universitet dasturlariga moliyaviy ta'limni kiritish, onlayn kurslar va treninglarni ko'paytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
2. <https://cbu.uz/uz/> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki
3. Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari.

¹⁸⁷ <https://cbu.uz/uz/> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo'yicha tadqiqotlar